

Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

Mustaqillik - ulug' ne'mat! Xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan mustaqillik tufayli o'z erkimizga, e'tiqodimizga, o'zimizning mustahkam taraqqiyot yo'limizga ega bo'ldik. Mustaqilligimizning o'tgan 27 yilida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini qamrab olgan keng ko'lamli islohotlar davri bo'ldi, jannatmakon yurtimiz O'zbekiston dunyodagi eng bunyodkor davlatlardan biriga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bizning qo'lga kiritayotgan yutuqlarimiz, xalqimizning hayot darajasi va sifati tobora yuksalib, yurtimiz qiyofasi, shahar va qishloqlarimiz yanada obod maskanga aylanib borayotgani mustaqillik sharofatidir.

Shu o'rinda, O'zbekistonimizning gullab-yashnashida munosib hissa qo'shib kelayotgan xalqimizga eng aziz, eng qadrli va eng ulug' kunda baxt, osoyishtalik, uzoq umr, sihat-salomatlik tilab qolamiz. Osmonimiz hamisha tinch va musaffo, mutsaqilligimiz esa abadiy bo'lsin! Barchani mustaqilligimizning 27 yilligi bilan chin qalbimizdan muborakbod etamiz!

O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi rahbariyati